

EDITORIAL LEADERSHIP

Editor-in-Chief:

Guzal Khalikulova – PhD (Art), Professor
Uzbek State Institute of Art and Culture

Deputy Editor:

Gulchira Khodjametova – PhD (History), Professor
Uzbek State Institute of Art and Culture (Nukus Branch)

Editorial Board:

Bobir Dadamukhamedov – PhD (Art)
National Institute of Painting and Design named after Kamoliddin Behzod

Dilfuzakhon Raimova – Associate Professor
Andijan State University

Mamur Umarov – PhD (Philosophy), Associate Professor
Uzbek State Institute of Art and Culture

Nadira Alimdjanova – Associate Professor
State Academy of Choreography of Uzbekistan

Nozim Kasimov – DSc (Philology), Professor
State Academy of Choreography of Uzbekistan

Pulatzhon Tashkenbaev – DSc (Art), Professor
State Academy of Choreography of Uzbekistan


Rakhimjon Dusanov – PhD (Art), Associate Professor
Uzbek State Institute of Art and Culture

Ramz Kadirov – Associate Professor
Uzbek State Institute of Art and Culture

Rudakiy Allanbayev – Acting Professor
Uzbekistan State Conservatory (Nukus Branch)

Tatyana Davidova – PhD (Art), Associate Professor
Uzbekistan State Conservatory


Zulfiya Ziyavutdinova – Associate Professor
Andijan State University



A LIFE DEDICATED TO DANCE: MUKARRAMA TURGUNBAYEVA AND UZBEK NATIONAL CHOREOGRAPHY

Nodira Alimjanova¹.

¹ Associate Professor, Department of Art Theory and History, State Academy of Choreography of Uzbekistan.

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.18261115>

Key words: *uzbek dance art, national choreography, stage dance, folk dance, professional dance, Bahor Dance Ensemble, dance pedagogy, artistic image, master-apprentice tradition.*

ABSTRACT

This article provides a scholarly analysis of the creative and pedagogical activity of Mukarrama Turgunbayeva, an outstanding dancer, choreographer, and educator who played a significant role in the development of Uzbek national and professional dance art. The study examines her approaches to integrating elements of folk dance with professional stage interpretation, elevating themes of labor and everyday life to the level of artistic imagery, and revealing the image of the Eastern woman through expressive stage means. Through an analysis of the dance works *Paxta*, *Pilla*, and *Tanovar*, as well as the activities of the *Bahor* Uzbek Girls' Dance Ensemble, the article substantiates the artist's contribution to the development of Uzbek choreography. The research findings confirm that Mukarrama Turgunbayeva's creative legacy constitutes an invaluable asset of Uzbek national choreography and demonstrate its significant scholarly and practical importance.

RAQSGA BAG'ISHLANGAN UMR: MUKARRAMA TURGUNBOYEVA VA O'ZBEK MILLIY XOREOGRAFIYASI

Kalit so'zlar: *o'zbek raqs san'ati, milliy xoreografiya, sahnaviy raqs, xalq raqsi, professional raqs, "Bahor" raqs ansambli, raqs pedagogikasi, badiiy obraz, ustoz-shogird an'anasi.*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek milliy va professional raqs san'ati taraqqiyotida muhim o'rin tutgan atoqli raqqosa, baletmeyster va pedagog Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy va pedagogik faoliyati ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Tadqiqotda xalq raqsi unsurlarini professional sahna talqini bilan uyg'unlashtirish, mehnat va kundalik turmush mavzularini badiiy obraz darajasiga ko'tarish hamda Sharq ayoli qiyofasini sahnaviy ifoda vositalari orqali ochib berishdagi yondashuvlar yoritilgan. Maqolada "Paxta", "Pilla", "Tanovar" raqs asarlari hamda "Bahor" o'zbek qizlar raqs ansambli faoliyati misolida san'atkorning o'zbek xoreografiyasi rivojiga qo'shgan hissasi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy merosi o'zbek milliy xoreografiyasining bebaho boyligi ekanini tasdiqlaydi va uning ilmiy va amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

O'zbek xalqining nazokatli va betakror raqslari milliy ma'naviy madaniyatning ajralmas va muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy raqs san'ati xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, urf-odatlarini, mehnat faoliyati hamda estetik qarashlarini mujassam etgan murakkab madaniy hodisa sifatida shakllangan. O'zbekiston hududida rivoj topgan raqs san'ati uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan bo'lib, uning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologik qazilmalar jarayonida aniqlangan turli buyumlar, marosimlarga oid tasvirlar, qoyalarga ishlangan suratlar va moddiy madaniyat yodgorliklari raqs san'atining ibtidoiy jamiyat davrlaridayoq xalq hayoti va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq holda vujudga kelganini tasdiqlaydi [1].

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti jarayonida raqs san'ati ham izchil rivojlanib, o'zining mazmuniy va shakliy qirralarini boyitib bordi. Tarixiy jarayonlar ta'sirida raqs janrlarining xilma-xilligi kengaydi, ularning mavzulari mehnat jarayonlari, kundalik turmush, marosim va urf-odatlar bilan bir qatorda ijtimoiy-falsafiy mazmun kasb eta boshladi. Shu bilan birga, raqs harakatlarining plastik tizimi, sahnaviy kompozitsiya va badiiy ifoda vositalari takomillashib, milliy raqs san'atining o'ziga xos estetik mezonlari shakllandi.

Raqs san'ati insonning ichki kechinmalari, hissiy holatlari va ruhiy olamini tana harakatlari orqali ifodalovchi murakkab va ko'p qirrali san'at turi sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat badiiy obraz yaratish vositasi, balki estetik didni shakllantirish, milliy o'zlikni anglash va avlodlar o'rtasida madaniy merosni uzviy davom ettirishda muhim ijtimoiy-madaniy ahamiyat kasb etadi. Shu bois milliy raqs san'atining an'anaviy xususiyatlarini asrab-avaylash, ularni zamonaviy sahna talablari bilan uyg'un holda rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida qaralmoqda.

Mazkur jarayonda o'zbek professional raqs san'atining shakllanishi va taraqqiyotida alohida o'rin tutgan atoqli san'atkorlar ijodini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Ana shunday san'atkorlardan biri – mashhur raqqosa, baletmeyster va pedagog Mukarrama Turg'unboyevidir. Uning ijodiy va pedagogik faoliyati o'zbek sahnaviy raqs san'atining milliy asoslarini mustahkamlash, xalq raqsi unsurlarini professional sahna talqini darajasiga ko'tarish hamda milliy raqs an'alarini yangi estetik mezonlar asosida rivojlantirishda muhim rol o'ynadi.

Mazkur maqolada Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy merosi, pedagogik faoliyati va sahnaviy raqs san'ati rivojiga qo'shgan hissasi tizimli va ilmiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi san'atkor ijodining o'zbek professional raqs san'ati shakllanishidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash, uning raqs san'atiga olib kirgan badiiy va uslubiy yangiliklarini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot jarayonida o'zbek professional raqs san'ati taraqqiyoti va Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy merosini har tomonlama o'rganishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini tarixiy-tahliliy, tizimli va qiyosiy tahlil metodlari tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar orqali san'atkor ijodining shakllanish bosqichlari, uning faoliyati tarixiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi.

Tarixiy-tahliliy metod yordamida Mukarrama Turg'unboyevaning hayoti va ijodiy faoliyati muayyan davrlarning ijtimoiy-madaniy jarayonlari, san'at siyosati va milliy xoreografiya rivoji kontekstida ko'rib chiqildi. Bu metod san'atkorning ijodiy qarashlari va sahnaviy yondashuvlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash imkonini berdi. Tizimli yondashuv orqali Mukarrama Turg'unboyeva ijodi yaxlit badiiy tizim sifatida tahlil qilinib, undagi xalq raqsi unsurlari, professional sahna talqinlari va pedagogik faoliyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ochib berildi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida san'atkor yaratgan raqs asarlari o'zbek raqs san'atining boshqa namunalari hamda uning zamondoshlari ijodi bilan taqqoslab o'rganildi. Bu esa Mukarrama Turg'unboyevaning individual ijodiy uslubi, sahnaviy raqs tiliga kiritgan yangiliklari va milliy xoreografiya rivojidadagi o'ziga xos o'rnini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda empirik manbalar sifatida arxiv hujjatlari, ilmiy monografiyalar, maqolalar, xotira va esdaliklar, shuningdek, san'atkor sahnalashtirgan raqs namunalari tahlil qilindi. Ustoz-shogird an'analari doirasida Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy shakllanishi va pedagogik faoliyati ham alohida o'rganildi.

Shuningdek, san'atkor tomonidan yaratilgan raqs asarlarining badiiy va mazmuniy xususiyatlarini aniqlashda xoreografik tahlil usullaridan foydalanildi. Mazkur usul orqali raqs kompozitsiyasi, harakat plastikasi, musiqiy uyg'unlik, sahnaviy obraz va emotsional ifoda vositalari tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuvlar majmui tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi va xulosalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Mukarrama Turg'unboyeva o'zbek professional raqs san'ati taraqqiyotida yetakchi va belgilovchi shaxs sifatida shakllangan. Uning ijodiy kamoloti va san'atkor sifatida yetilishi ustoz-shogird an'analari doirasida kechib, bu jarayonda atoqli san'atkorlar – Usta Olim Komilov, Tamaraxonim hamda Yusufjon qiziq Shakarjonovning ijodiy va pedagogik ta'siri muhim o'rin egallagan [2]. Ushbu ustozlar rahbarligida olingan bilim va tajriba Mukarrama Turg'unboyevara milliy raqs an'alarini chuqur o'zlashtirish, ularni professional sahna san'ati darajasida qayta talqin etish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Mukarrama Turg'unboyeva ijodining muhim xususiyatlaridan biri xalq raqs unsurlarini professional sahna talqini bilan uyg'unlashtirishga asoslangan badiiy yondashuvdir.

Uning sahnalashtirgan raqslarida mehnat jarayonlari, kundalik turmush va xalq hayotiga xos holatlar badiiy obraz darajasiga ko'tarilgan. Xususan, Usta Olim Komilov bilan hamkorlikda yaratilgan "Paxta" raqsi hamda 1943-yilda sahnalashtirilgan "Pilla" raqsining yangi varianti mehnat mavzusini ifodalovchi eng yorqin sahnaviy asarlar sifatida o'zbek xoreografiyasida alohida o'rin egallaydi [5]. Ushbu raqslarda harakat plastikasi, musiqiy uyg'unlik va sahnaviy kompozitsiya xalqona ruh bilan professional ijro mezonlarini birlashtirgan.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, Mukarrama Turg'unboyeva ijodida lirik va falsafiy mazmunga ega raqs asarlari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, "Tanovar" raqsi san'atkor ijodining eng yuksak cho'qqisi sifatida e'tirof etilib, unda o'zbek ayolining ichki kechinmalari, orzu-umidlari, sog'inch va hijron tuyg'ulari nozik plastik vositalar orqali chuqur va ta'sirchan ifodalangan. Mazkur raqsda lirik obrazning mukammal ochib berilishi, emotsional holatlarning musiqiy va harakat vositalari bilan uyg'unligi Mukarrama Turg'unboyevaning yuksak xoreografik mahoratini namoyon etadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, Mukarrama Turg'unboyevaning tashkilotchilik va pedagogik faoliyati ham o'zbek raqs san'ati rivojida muhim natijalarga olib kelgan. 1957 yilda tashkil etilgan "Bahor" o'zbek qizlar raqs ansambli uning ijodiy qarashlari va sahnaviy tajribasining amaliy natijasi sifatida shakllandi. Ushbu ansambl orqali o'zbek xalq raqslari nafaqat milliy sahnalarda, balki xalqaro miqyosda ham keng targ'ib etildi. "Bahor" ansamblining jahon sahnalaridagi muvaffaqiyatlari Mukarrama Turg'unboyevaning o'zbek raqs san'atini professional va xalqaro darajaga olib chiqishdagi bevosita hissasini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, olingan natijalar Mukarrama Turg'unboyeva ijodining o'zbek professional raqs san'ati shakllanishi va taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Muhokama

Olingan tadqiqot natijalari Mukarrama Turg'unboyeva ijodida milliy an'analar va individual ijodiy yondashuvning uzviy sintezi mavjudligini yaqqol namoyon etadi. Uning sahnalashtirgan raqs asarlarida xalq raqsi unsurlari saqlangan holda, ular professional sahna san'ati talablariga mos tarzda qayta talqin etilgan. Natijada, soddalik va tabiiylik bilan bir qatorda chuqur emotsional ifoda, plastik aniqlik va badiiy mukammallik uyg'unlashgan sahnaviy raqs namunalari kuzatish mumkin. Mazkur yondashuv o'zbek sahnaviy raqsining estetik mezonlarini yangi bosqichga ko'targan holda, milliy xoreografiyaning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdi.

Mukarrama Turg'unboyeva ijodida raqs faqatgina harakatlar majmui sifatida emas, balki murakkab badiiy-falsafiy mazmunga ega obrazli ifoda vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Uning raqslarida inson ruhiy holatlari, ijtimoiy munosabatlar va milliy qadriyatlar plastika, ritm va musiqiy uyg'unlik orqali ifodalanadi. Bu jihat san'atkor ijodini o'zbek raqs san'ati tarixida alohida fenomen sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, Mukarrama Turg'unboyevaning pedagogik va tashkilotchilik faoliyati uning ijodiy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Xususan, "Bahor" o'zbek qizlar raqs ansamblining tashkil etilishi milliy raqs san'atining institutsional rivojida muhim bosqich bo'ldi. Mazkur ansambl professional raqqosalarni tayyorlash, sahnaviy raqlarning yagona uslubiy tizimini shakllantirish hamda milliy raqs namunalari repertuarini kengaytirish borasida muhim vazifalarni bajardi.

"Bahor" ansambli faoliyati natijasida o'zbek raqs san'ati milliy sahnalar bilan cheklanib qolmay, xalqaro madaniy maydonga chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ansambl repertuariga turli xalqlarning raqslari kiritilishi va ularning yuksak professional darajada ijro etilishi o'zbek xoreografiyasining ochiqligi va badiiy universalligini namoyon etdi. Bu holat Mukarrama Turg'unboyevaning o'zbek raqs san'atini global madaniy jarayonlarga integratsiya qilishga qaratilgan uzoqni ko'zlagan ijodiy strategiyasidan dalolat beradi.

Shu bois, olingan natijalar Mukarrama Turg'unboyevaning ijodi va faoliyatini faqat alohida san'atkor merosi sifatida emas, balki o'zbek professional raqs san'atining shakllanishi, estetik rivoji va institutsional mustahkamlanishida muhim tizimli omil sifatida baholash imkonini beradi. Uning ijodiy tajribasi bugungi kunda ham milliy xoreografiya rivoji uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, zamonaviy xoreograflar va tadqiqotchilar uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Mukarrama Turg'unboyevaning ijodiy, pedagogik va tashkilotchilik faoliyati o'zbek milliy hamda professional raqs san'ati taraqqiyotida muhim va burilish yasagan tarixiy bosqichni tashkil etadi. Uning san'atkor sifatida shakllanishi xalq ijodi, ustoz-shogird an'analari va zamonaviy sahna talablari o'rtasidagi uzviy uyg'unlik asosida kechib, natijada o'zbek sahnaviy raqs san'atining milliy asoslariga tayangan, badiiy jihatdan mukammal tizimi vujudga keldi. Mukarrama Turg'unboyeva milliy raqs an'alarini saqlab qolish bilan bir qatorda, ularni professional sahna san'ati darajasiga ko'tarib, xalqona ifoda va yuksak estetik talqin o'rtasida barqaror muvozanatni ta'minlashga erishdi.

San'atkor ijodida mehnat va kundalik turmush mavzularining badiiy talqini, Sharq ayoliga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlarining nozik plastik vositalar orqali ifodalanishi o'zbek xoreografiyasining mazmunan va shaklan boyishiga xizmat qildi. Uning sahnalashtirgan raqslari soddalik, tabiiylik va chuqur emotsional ta'sirchanlik bilan ajralib turib, milliy raqs san'atining estetik mezonlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, "Tanovar" kabi raqs asarlari san'atkor ijodining badiiy cho'qqisi sifatida e'tirof etilib, o'zbek raqs san'atining eng yuksak namunalari qatoridan mustahkam o'rin egalladi.

Shuningdek, Mukarrama Turg'unboyevaning pedagogik va tashkilotchilik faoliyati, xususan, "Bahor" o'zbek qizlar raqs ansamblining tashkil etilishi va rivojlantirilishi milliy raqs san'atining institutsional mustahkamlanishida muhim omil bo'ldi. Ushbu ansambl orqali o'zbek raqs san'ati nafaqat milliy madaniy makon doirasida, balki xalqaro miqyosda ham keng targ'ib etilib, jahon sahnalarida e'tirof etildi. Bu holat san'atkorning uzoqni ko'zlagan ijodiy strategiyasi va milliy xoreografiyani global madaniy jarayonlarga integratsiya qilish borasidagi xizmatlarini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Mukarrama Turg'unboyevaning boy ijodiy merosi o'zbek milliy xoreografiyasining bebaho boyligi sifatida ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Uning merosini tizimli ravishda o'rganish, ilmiy tahlil qilish va zamonaviy sahna amaliyotida tatbiq etish milliy raqs san'atining kelgusidagi taraqqiyoti, yosh xoreograflar va ijrochilarni tayyorlash jarayonida muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

References

1. Avdeyeva, L. (2001). *O'zbek milliy raqs tarixidan*. Toshkent.
2. Avdeyeva, L. (1989). *Tanets Mukarram Turgunbaevoy* [Mukarrama Turg'unboyeva raqsi]. Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti.
3. Karimova, R. (2003). *O'zbek raqslari*. Toshkent: Cho'lpon nashriyoti.
4. Karimova, R. (1973). *Ferganskiy tanets*. Toshkent: G. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 224-bet.
5. Xamrayeva, G. (2012). *Raqsning milliy qiyofasi*. Toshkent, 113-bet.

ILMIY TAQRIZ

Taqdim etilgan ilmiy maqola o‘zbek milliy va professional raqs san’ati taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan atoqli raqqosa, baletmeyster va pedagog Mukarrama Turg‘unboyevaning ijodiy hamda pedagogik faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tanlangan mavzu dolzarbligi bilan ajralib turib, milliy xoreografiya tarixini chuqurroq o‘rganish, yetuk san’atkorlar merosini tizimli ravishda ilmiy muomalaga kiritish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega.

Maqola IMRAD (Introduction, Methods, Results, Discussion, Conclusion) xalqaro ilmiy tuzilmasiga to‘liq mos ravishda shakllantirilgan. Kirish qismida o‘zbek raqs san’atining tarixiy va madaniy ildizlari asoslangan holda yoritilib, tadqiqotning maqsadi va ilmiy yo‘nalishi aniq belgilangan. Muallif raqs san’atini milliy o‘zlikni ifodalovchi murakkab madaniy hodisa sifatida talqin qilgan bo‘lib, bu yondashuv maqolaning nazariy asosini mustahkamlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi bo‘limida tarixiy-tahliliy, tizimli va qiyosiy metodlardan foydalanilgani ilmiy izlanishning puxta rejalashtirilganidan dalolat beradi. Manbalar bazasi yetarli darajada keng bo‘lib, arxiv hujjatlari, ilmiy adabiyotlar hamda sahnaviy raqs namunalari tayangan holda tahlil olib borilgan. Ushbu yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta‘minlaydi.

Natijalar va muhokama bo‘limlarida Mukarrama Turg‘unboyevaning ijodiy merosi aniq dalillar asosida ochib berilgan. “Paxta”, “Pilla” va “Tanovar” raqs asarlari tahlili orqali san’atkor ijodida mehnat, kundalik turmush va inson ruhiy kechinmalarining badiiy ifodasi chuqur yoritilgan. Ayniqsa, “Tanovar” raqsining estetik hamda lirik-falsafiy mazmuni bo‘yicha keltirilgan xulosalar ilmiy jihatdan asosli va mantiqan izchil hisoblanadi.

Shuningdek, “Bahor” o‘zbek qizlar raqs ansamblining tashkil etilishi va faoliyati san’atkorning pedagogik hamda tashkilotchilik faoliyatining muhim natijasi sifatida baholangan. Bu jihat maqolaning amaliy ahamiyatini oshirib, milliy raqs san’atining institutsional rivojlanish jarayonlarini yoritishga xizmat qiladi.

Maqolada ilmiy yangilik masalasi aniq ifodalangan bo‘lib, muallif Mukarrama Turg‘unboyeva ijodini o‘zbek professional raqs san’ati shakllanishi jarayonida yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqadi. Milliy va individual ijodiy xususiyatlar sintezi, ustoz-shogird an‘anasining badiiy natijalarga ta‘siri hamda sahnaviy raqs tilining shakllanish omillari ilmiy muomalaga asosli ravishda kiritilgan. Ushbu yondashuv maqolaning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyatini oshiradi.

Xulosa qismida tadqiqot natijalari mantiqiy tarzda umumlashtirilib, Mukarrama Turg‘unboyevaning ijodiy merosi o‘zbek milliy xoreografiyasining bebaho boyligi ekani asoslab berilgan. Xulosalar tadqiqot davomida olingan natijalarga mos keladi va ilmiy mantiqqa zid kelmaydi.

Umuman olganda, maqola ilmiy uslubga to‘liq mos, tili ravon va terminologik jihatdan aniq. Mavzu yetarli darajada chuqur va tizimli yoritilgan bo‘lib, tadqiqot natijalari san’atshunoslik va xoreografiya yo‘nalishidagi ilmiy jurnallarda chop etish uchun **tavsiya etiladi**.

Disclaimer ©

This editorial review has been prepared by the Editorial Board of the *Journal of Culture and Art* for the purposes of internal editorial assessment and quality assurance within the journal’s publication process. This review is intended to provide an analytical overview of the scientific content, methodological approach, and thematic relevance of the submitted work. It does not constitute peer review, does not replace independent expert evaluation, and should not be interpreted as reflecting the personal views of the author(s) or as representing the official position of the journal. The Editorial Board assumes no responsibility for the implementation, interpretation, or consequences of any observations, comments, or analytical conclusions contained in this review. The review may include content generated with the assistance of artificial intelligence tools used for editorial support purposes.

This editorial review is provided solely to enhance transparency in the editorial process and to support the maintenance of academic and publication standards.